
FERGANA CUPA XALQARO TURNIR

Joriy yil 4-12 avgust kunlari Farg'ona shahridagi «Istiqlol» tennis majmuasida tennis bo'yicha 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar va qizlar o'rtasida «Fergana CUP» xalqaro turniri bo'lib o'tkazildi.

Turnir O'zbekiston va Osiyo tennis federatsiyasi hamkorligida o'tkazildi. Mazkur xalqaro turnirda 16 ta davlatdan 102 nafar sportchi qatnashdi.

Musobaqa natijalariga ko'ra **QIZLAR** o'rtasida **JUFTLIK** bahslarida **1-O'RINNI** Kseniya Domenina (Rossiya) va Taisya Paskalyova (Rossiya) juftligi, **2-O'RINNI** Yuliya Kim (O'zbekiston) va Mai Napatt Nirundorn (Tailand) juftligi egalladilar. **ERKL BOLALAR** o'rtasida **juftlik bahslarida 1-o'rinni** Marko Furlanetto va Mishele Vianello (Italiya) juftligi, **2-O'RINNI** Sultan Narbekov va Beibit Jukaev (Qozog'iston) juftligi egalladilar.

O'smirlar va qizlar o'rtasidagi yakkalik bahslarining final o'yinlarida o'smirlar o'rtasida Sergey Fomin (O'zbekiston) va Adam Nagoudi (Tunis) bellashdilar. Yakunda Sergey Fomin (O'zbekiston) **1-**, Adam Nagoudi (Tunis) **2-o'rinni** egalladilar.

Qizlar o'rtasidagi yakkalik bahslarining final o'yinida Taisya Pachkalyova (Rossiya) va Zeyneb Shonmez (Turkiya) o'zaro bellashdilar. Natijada Taisya Pachkalyova (Rossiya) **1-O'RINNI**, Zeyneb Shonmez (Turkiya) **2-O'RINNI** egalladilar.

G'olib va sovrindorlar qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Taqdirlash marosimida viloyat hokimining o'rinbosari I.A.Nosirov ishtirok etdi.

2017-08-21 12:04:13